

O`ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLAR

*Sharipov Bunyodbek Baxtiyor o`g`li*

*Tolibjonov Ayyubjon Eminjon o`g`li*

*Rahmonaliyev Muhammadyusuf Azamjon o`g`li*

*Talaba Farg`ona politexnika instituti Farg`na shahri*

[Bunyodbeksharipov3311@gmail.com](mailto:Bunyodbeksharipov3311@gmail.com)

O`zbekiston ekologiyasini yaxshilash uchun, mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilash, ekologik tanazzulning oldini olish uchun xalqimiz orasida qadimda malum bo`lgan ekologik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o`rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak. Inson faoliyati tasirida biosferaning o`zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ana shunday ta`sirda yoki munosabatda bo`lishi natijasida XX asr o`rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko`rsatayotgan tasiri bilan bog`liq. Inson sivilizasiyasining rivojlanishi va uning tabiat bagriga tobora chuqurroq kirib borish oqibatida ahvol tubdan o`zgardi. Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirma ham bo`ladi. Chunki yer yuzidagi o`rmonlar qirgildi, katta – katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o`zlashtirildi, dorilar bilan o`g`tlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o`rmon yoginlari, chang bo`ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy muvozanatiga putur yetkazadi. Dunyo bo`yicha kuzatiladigan tabiiy, antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday ekologik muammolarga ba`zi bir misollarni keltirib o`tamiz:

1. "Atmosferaning dimiqishi" hodisasi;
2. "Ozon qatlaminin siyraklanishi" hodisasi;
3. "Chuchuk suv" muammosi;
4. "Tirik tabiatdagi o`simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi" muammosi.
5. "Pestisetlardan foydalanish" muammosi;

Bugungi kunda mustaqil o`zbekiston yirik sanoat va agrar mintaq bo`lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashina sozlik, energetika, kimyo, oziq – ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko`zda tutulgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy – ekotizmlarning holatiga muayan darajada salbiy tasir ko`rsatadi.

Respublikada keskin bo`lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

1. Yirik hududiy – sanoat majmualari joylashgan rayonlarda yani Angren-Olmaliq Chirchiqlarda, Farg’ona-Marg’ilonda, Navoiy va boshqa rayonlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari. Bu rayonlarda ijtimoiy-ekotizm holati yaxshi emas. Chunki sanoat markazlarida chiqayotgan turli-xil gazlar va chiqindilar atrof-muhitni ekologik holatini buzulishiga olib kelmoqda.

1. Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.

2. Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisedlar va mineral o’g’itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir.

3. O’simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qoriqxonalar va milliy boglar tarmog`ini kengaytirish.

Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo’nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilish buning uchun Respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni yaratish, chang to’plovchi va tozalovchi yangi qurilmalarni yaratish va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish eskirgan qurilmalarni yaxshilash bilan almashtirish va boshqalar. Orol dengizining qurishi iqlim o’zgarishiga ham sababchi bo’ldi. Qurg’oqchilik tufayli iqlimning keskin kontinentalligi ortib ketdi. Dengiz va quruqlik o’rtasidagi haroratning o’zgarishi, shamol tezligining ortishi, suvning to’lqinlanish hodisasini kuchaytirishiga olib keldi. Sut emizuvchi hayvonlar va qushlar kamayib ketdi. Qurigan maydonlar xavfli kasalliklarni tarqatuvchi kemiruvchi bilan to’lib bormoqda. Orol bo’yining sanitar-epidemiologik ahvoli nihoyatda og’irlashmoqda. Agar zudlik bilan tabiatda vujudga kelayotgan muammolar hal qilinmasa insoniyat va butun mavjudodning hayoti xavf ostida qoladi. Biz tabiatga qarammiz, biz tabiatsiz yashay olmaymiz, shunday ekan biz barchamiz tabiatni asrab avaylashimiz, uning har-bir qarich yerini ko’z qorachig`iday asrashimiz, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishimiz, har-bir tomchi suvni tejab ishlatishimiz, tabiat haqida doimo g’amxo’rlik qilishimiz lozim. Biz ona tabiyatimizni, yani ekalogiyani sarashimiz kerak zero bizdan keyngi avlodlar ham bizdan minodor bolishi kerak va ekologik mumolarga yechim izlashda davom etishimiz lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyodlar.**

1. Karimov I., O‘zbekistan XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, Toshkent, 1997.
2. Otaboyev Sh., Nabiyeu M., Inson va biosfera, Toshkent, 1995;
3. Sanginov S, Filosofskiy analiz modelirovaniya globalnix protsessov, Toshkent, 1996.